
Source and target domains of conceptual metaphor in English and Uzbek phraseology: a comparative cognitive analysis

Gulnora Muradullayevna Normuradova

guli87nora@gmail.com

Independent Researcher,
National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek

Annotation *The article presents a comparative cognitive analysis of source and target domains of conceptual metaphor in English and Uzbek phraseology. Its aim is to identify typical patterns of conceptual projection in phraseological units and to distinguish conceptual correspondence from phraseological equivalence. The material consists of metaphorical idioms from both languages, examined through comparative cognitive, semantic, and conceptual analysis. HUMAN BODY, SPACE AND DIRECTION, and MOVEMENT AND PATH are treated as major source domains grounded in everyday experience. Pairs such as lose one's head – boshini yo'qotmoq, hang one's head – bosh egmoq, and pave the way – yo'l ochmoq illustrate three types of relations: the same source and the same target domain; one source with different target domains; and different source images expressing a comparable target meaning. The findings show that cross-linguistic similarity often appears at the level of conceptual structure rather than formal equivalence. This approach helps describe universal and culture-specific features of phraseological conceptualization more precisely.*

Keywords *Conceptual metaphor, source domain, target domain, conceptual projection, phraseological unit, comparative cognitive analysis*

Ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasida konseptual metaforaning manba va maqsad domenlari: qiyosiy-kognitiv tahlil

Normuradova Gulnora Muradullayevna

guli87nora@gmail.com

Mustaqil tadqiqotchi,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti

Annotatsiya *Maqolada ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasida konseptual metaforaning manba va maqsad domenlari o'rtasidagi munosabat qiyosiy-kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi frazeologik birliklarda konseptual proyeksiyaning tipik ko'rinishlarini aniqlash hamda konseptual va frazeologik muvofiqlik o'rtasidagi farqni ko'rsatishdan iborat. Material sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi metaforik frazeologizmlar tanlandi; tahlilda qiyosiy-kognitiv, semantik va konseptual usullardan foydalanildi. INSON TANASI, MAKON VA YO'NALISH hamda HAKKAT VA YO'L tajribaga yaqin asosiy manba domenlari sifatida ko'rib chiqildi. Lose one's head – boshini yo'qotmoq, hang one's head – bosh egmoq, pave the way – yo'l ochmoq kabi juftliklar asosida uch munosabat turi tavsiflandi: bir xil manba domeni va bir xil maqsad domeni; bir xil manba domeni va turli maqsadlar; turli manba obrazlari va yaqin maqsad mazmuni. Natijalar ikki tildagi o'xshashlik ko'pincha shakliy ekvivalentlikda emas, balki konseptual tuzilish darajasida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu yondashuv frazeologik birliklarning universal va*

milliy-madaniy xususiyatlarini aniqroq tavsiflashga xizmat qiladi. Shuningdek, tillararo qiyoslash mezonlarini yanada aniqlashtirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar *Konseptual metafora, manba domeni, maqsad domeni, konseptual proyeksiya, frazeologik birlik, qiyosiy-kognitiv tahlil*

Исходные и целевые домены концептуальной метафоры в английской и узбекской фразеологии: сравнительно-когнитивный анализ

Нормурадова Гульнора Мурадуллаевна

guli87nora@gmail.com

*Независимый исследователь,
Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека*

Аннотация *В статье представлен сравнительно-когнитивный анализ исходных и целевых доменов концептуальной метафоры в английской и узбекской фразеологии. Цель исследования заключается в выявлении типичных моделей концептуальной проекции во фразеологических единицах и разграничении концептуального соответствия и фразеологической эквивалентности. Материал составили метафорические фразеологизмы двух языков, рассмотренные с применением сравнительно-когнитивного, семантического и концептуального методов. В качестве основных исходных доменов анализируются ТЕЛО ЧЕЛОВЕКА, ПРОСТРАНСТВО И НАПРАВЛЕНИЕ, ДВИЖЕНИЕ И ПУТЬ, связанные с повседневным опытом человека. Пары lose one's head – boshini yo'qotmoq, hang one's head – bosh egmoq и pave the way – yo'l ochmoq демонстрируют три типа отношений: одинаковый исходный и одинаковый целевой домен; один исходный домен и разные целевые домены; разные исходные образы при близком целевом значении. Результаты показывают, что межъязыковое сходство нередко проявляется на уровне концептуальной структуры, а не формальной эквивалентности. Такой подход позволяет точнее описывать универсальные и культурно-специфические особенности фразеологической концептуализации. Он также позволяет уточнить критерии сопоставления образной основы и смысловой направленности фразеологизмов в двух языках.*

Ключевые слова *Концептуальная метафора, исходный домен, целевой домен, концептуальная проекция, фразеологическая единица, сравнительно-когнитивный анализ*

Kirish

Metafora tilshunoslikda dastlab ko'proq ma'no ko'chishi va badiiy tasvir vositasi sifatida talqin qilingan bo'lsa, XX asrga kelib uning tafakkur bilan bog'liq tomonlari tobora faol o'rganila boshladi. I.A. Richards metaforik

ma'noni ikki mazmuniy unsur o'rtasidagi munosabat bilan izohladi (Richards, 1936); M. Black esa metaforada ikki tushuncha tizimining o'zaro ta'sirini muhim deb bildi (Black, 1962). M. Reddyning kundalik muloqotdagi tizimli metaforik ifodalarga oid kuzatuvlari (Reddy,

1993) ham metaforani faqat uslubiy hodisa sifatida tushuntirish yetarli emasligini ko'rsatdi.

G. Lakoff va M. Johnson metaforani bir tushuncha sohasini boshqa tushuncha sohasi orqali anglashga xizmat qiluvchi konseptual mexanizm sifatida izohladilar (Lakoff & Johnson, 1980). Keyingi tadqiqotlarda M. Johnson obraz-sxemalarning tajribaviy asosini (Johnson, 1987), R. Gibbs obrazli tafakkur va turg'un birliklarning konseptual motivatsiyasini (Gibbs, 1994), Z. Kövecses esa metaforalarning manba va maqsad domenlari hamda tillararo o'zgaruvchanligini yoritdi (Kövecses, 2005, 2020). Shunday qilib, konseptual metafora nazariyasi G. Lakoff va M. Johnson ishlari bilan bog'liq bo'lsa-da, uning nazariy va amaliy doirasi boshqa olimlar tadqiqotlari bilan ham sezilarli darajada rivojlangan.

Frazeologik birliklar mazkur masalani o'rganish uchun qulay materialdir. Ularning ko'chma ma'nosi ko'pincha insonning tana, makon, harakat kabi bevosita tajribalariga tayanadi. Shu sababli ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarni faqat tarjimaviy muvofiqlik asosida qiyoslash yetarli emas; frazeologik obraz qaysi manba domeniga tegishli ekani va u qaysi maqsad domenini anglashga xizmat qilishi ham aniqlanishi zarur.

Maqolaning maqsadi ingliz va o'zbek tillari frazeologiyasida manba va maqsad domenlari o'rtasidagi konseptual proyeksiyaning ayrim tipik ko'rinishlarini qiyosiy-kognitiv jihatdan tavsiflashdir. Tadqiqotning yangiligi frazeologik birliklarni uch munosabat asosida qiyoslashda ko'rinadi: bir xil manba domeni – bir xil maqsad domeni, bir xil manba domeni – turli maqsad domenlari va turli manba obrazlari – bir xil maqsad domeni. Bunday yondashuv konseptual muvofiqlik bilan frazeologik muvofiqlik o'rtasidagi farqni aniqroq ko'rsatishga imkon beradi.

Manba va maqsad domenlari: Nazariy asos

Konseptual metaforada *manba domeni* metaforik anglash uchun asos bo'luvchi tushuncha sohasi, *maqsad domeni* esa shu asos

orqali anglanadigan tushuncha sohasi sifatida qaraladi. Manba domeni odatda insonning bevosita jismoniy yoki kundalik tajribasiga yaqin bo'ladi. Masalan, yo'l bo'ylab harakatlanish tajribasi faoliyat, imkoniyat yoki maqsadga erishish kabi mavhum mazmunlarni anglash uchun asos bo'lishi mumkin.

Manba domenidan maqsad domeniga o'tish ushbu maqolada *konseptual proyeksiya* termini bilan ifodalanadi. Proyeksiya manba domenining barcha belgilarini maqsad domeniga ko'chirishni anglatmaydi. Muayyan vaziyatda manbaning faqat tegishli xususiyatlari faollashadi. Masalan, YO'L domenida yo'nalish, to'siq va ochqlik kabi belgilar tegishli ravishda xulqiy yo'nalish, qiyinchilik va imkoniyat tushunchalarini ifodalashi mumkin.

M. Johnsonning obraz-sxema haqidagi qarashlari bunday proyeksiyalarning tajribaviy asosini tushuntirishga yordam beradi. Tana holati, yuqori-past yo'nalishi va yo'l bo'ylab harakatlanish kabi takrorlanuvchi tajribalar mavhum tushunchalarning ifodalanishida tayanch bo'lishi mumkin (Johnson, 1987). R. Gibbs frazeologik ma'noning ichki obraz va konseptual motivatsiya bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi (Gibbs, 1994). Z. Kövecses esa bir xil umumiy konseptual tuzilma turli tillarda turlicha lisoniy ifodalanishi mumkinligini ko'rsatadi (Kövecses, 2005, 2020).

Shu asosda tahlilda quyidagi ketma-ketlik qo'llanadi: MANBA DOMENI → KONSEPTUAL PROYEKSIYA → MAQSAD DOMENI → FRAZEOLOGIK IFODA. Mazkur sxema frazeologizmlarni alohida ko'chma ma'noli birliklar sifatida emas, ularning ortidagi konseptual munosabat bilan birga tavsiflash imkonini beradi.

Tadqiqot materiallari va Metodlari

Tadqiqot materiallari ingliz va o'zbek tillaridagi metaforik frazeologik birliklardan tanlab olindi. O'zbek tilidagi birliklarni aniqlashda Sh. Rahmatullaevning *O'zbek tilining frazeologik lug'ati* (Rahmatullaev, 1992) hamda *O'zbek tili frazeologik lug'atining 2022-yilgi nashridan* (Rahmatullayev et al., 2022),

ingliz tilidagi birliklarni tanlashda J. Aytoning *Oxford Dictionary of Idioms* (Ayto, 2020) va A.P. Cowie, R. Mackin va I.R. McCaig muallifligidagi *Oxford Dictionary of Current Idiomatic English* (Cowie et al., 1983) asarlaridan foydalanildi. Maqolada son jihatdan to'liq frazeologik korpus tuzish maqsad qilinmaydi; tahlil manba va maqsad domenlari o'rtasidagi munosabatni aniq ko'rsatadigan birliklar bilan cheklanadi.

Tadqiqotda qiyosiy-kognitiv, semantik va konseptual tahlil usullari qo'llanildi. Dastlab frazeologik birlikning turg'un ko'chma ma'nosi aniqlanadi, so'ng uning obrazli asosini tashkil etuvchi manba domeni va shu obraz orqali anglanadigan maqsad domeni belgilanadi. Keyin ingliz va o'zbek birliklaridagi proyeksiya yo'nalishi qiyoslanadi. Shakliy o'xshashlik asosiy mezon sifatida olinmaydi; asosiy e'tibor konseptual tuzilishga qaratiladi.

Ingliz va o'zbek frazeologiyasida konseptual proyeksiya

• INSON TANASI manba domeni

Somatik frazeologizmlarda tana a'zosi anatomik ma'nosidan tashqari aqliy, hissiy yoki ijtimoiy mazmunni anglash uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, *lose one's head* (Cowie et al., 1983) va *boshini yo'qotmoq* (Rahmatullaev, 1992) birliklarida BOSH aqliy-hissiy nazorat bilan bog'lanadi: BOSH – AQLIY, HISSIY NAZORAT. Har ikki tilda boshning "yo'qolishi" jismoniy holatni emas, vaziyat ustidan nazoratning susayishini anglatadi. Bu juftlikda konseptual va frazeologik muvofiqlik bir-biriga yaqin.

Yurak komponentli birliklar esa bir xil maqsad domenining turli obrazlar orqali ifodalanishini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi *break one's heart* va o'zbek tilidagi *yuragi ezilmoq* birliklari kuchli ruhiy iztirobni anglatadi. Biroq birinchisida "sinish", ikkinchisida "ezilish" obrazi faol. Demak, YURAK – SALBIY HISSIY HOLAT proyeksiyasi umumiy bo'lsa-da, uning frazeologik ifodasi aynan emas.

Tana domeni fazoviy belgi bilan birikishi ham mumkin. *Hang one's head* (Ayto, 2020) va *bosh egmoq* (Rahmatullaev, 1992) birliklarida boshning pastga yo'nalishi uyat, itoat yoki

salbiy ruhiy holat bilan bog'lanadi. Bunday birliklarda somatik va fazoviy tajriba bir-birini to'ldiradi.

• MAKON VA YO'NALISH manba domeni

Yuqori-past hamda yaqin-uzoq kabi fazoviy munosabatlar mavhum baho va munosabatlarni ifodalashda faol qo'llanadi. Jismoniy yo'nalishning o'zi maqsad domeni emas; u hissiy yoki ijtimoiy holatni anglash uchun tayanch vazifasini bajaradi. Masalan, boshning pastga yo'nalishi salbiy baho yoki itoat bilan bog'lanishi mumkin. Shu tarzda PASTGA YO'NALISH – SALBIY HISSIY, IJTIMOY HOLAT proyeksiyasi yuzaga keladi.

YAQIN-UZOQ qarama-qarshiligida ham fazoviy masofa ijtimoiy yoki hissiy munosabatni anglashga xizmat qiladi: JISMONIY YAQINLIK — HISSIY, IJTIMOY YAQINLIK. Bu munosabat turli frazeologik va paremiologik birliklarda uchrashi mumkin, biroq maqolada fazoviy domenning umumiy konseptual vazifasini ko'rsatish bilan cheklaniladi.

• HARAKAT VA YO'L manba domeni

YO'L va HARAKAT domenlari faoliyat, imkoniyat, to'siq va xulqiy yo'nalishni anglashda samarali manba hisoblanadi. Ingliz tilidagi *pave the way* (Cowie et al., 1983) va o'zbek tilidagi *yo'l ochmoq* birliklarida jismoniy yo'lni ochish yoki tayyorlash obrazi imkoniyat yaratishga proyeksiya qilinadi: YO'LNI OCHISH, TAYYORLASH – IMKONIYAT YARATISH. Umumiy maqsad bir xil bo'lsa-da, inglizcha birlik "tayyorlash", o'zbekcha birlik esa "ochish" obrazini faollashtiradi.

Stand in someone's way (Cowie et al., 1983) va *yo'lini to'smoq* birliklarida esa yo'ldagi jismoniy to'siq faoliyatga xalaqit berish mazmunini ifodalaydi: YO'LDAGI TO'SIQ – FAOLIYATGA TO'SQINLIK. Bu juftlikda konseptual proyeksiya va frazeologik obraz bir-biriga ancha yaqin.

Go astray va *yo'ldan ozmoq* (Rahmatullayev et al., 2022) kabi birliklarda esa yo'nalishni yo'qotish xulqiy me'yordan chekinish bilan bog'lanadi. Bu holatda

YO'NALISHDAN CHETLASHISH – XULQIY ME'YORDAN CHETLASHISH proyeksiyasi kuzatiladi. Shunday qilib, birgina YO'L manba domeni imkoniyat, to'siq va xulqiy yo'nalish kabi turli maqsad domenlariga xizmat qilishi mumkin.

Manba va maqsad domenlarining qiyosiy munosabati

Tahlil materialida uch turdagi munosabat yaqqol ko'rinadi. Birinchi holatda bir xil manba domeni bir xil maqsad domeniga proyeksiya qilinadi: *lose one's head – boshini yo'qotmoq* yoki *stand in someone's way – yo'lini to'smoq* shunday juftliklardir. Ikkinchi holatda bir manba

domeni bir necha maqsadga xizmat qiladi. Masalan, BOSH domeni aqliy nazorat bilan, YO'L domeni esa imkoniyat, to'siq va xulqiy yo'nalish bilan bog'lanadi.

Uchinchi holatda esa maqsad domeni yaqin bo'lsa-da, manba obrazining ayrim xususiyatlari farq qiladi. *Break one's heart – yuragi ezilmoq* juftligida maqsad – ruhiy iztirob, ammo obrazning fizik modeli "sinish" va "ezilish" ko'rinishida farqlanadi. Shu sababli *konseptual muvofiqlik* va *frazeologik muvofiqlik*ni bir tushuncha deb bo'lmaydi. Birliklar konseptual jihatdan yaqin bo'lib, shakl va obraz jihatidan farqlanishi mumkin.

Manba domeni	Maqsad domenlari	Misol
INSON TANASI	Aqliy, hissiy nazorat; hissiy holat	<i>lose one's head – boshini yo'qotmoq</i>
MAKON VA YO'NALISH	Hissiy va ijtimoiy baho	<i>hang one's head – bosh egmoq</i>
HARAKAT VA YO'L	Imkoniyat; to'siq; xulqiy yo'nalish	<i>pave the way – yo'l ochmoq</i>

1-jadval.

Jadval manba domenlarining bir-biridan ajratilgan qat'iy ro'yxat emasligini, balki tanlangan frazeologik birliklarda kuzatilgan asosiy proyeksiya yo'nalishlarini ko'rsatadi. Bir manba domeni bir necha maqsadga xizmat qilishi mumkin; ayni paytda maqsad mazmuni turli obrazlar orqali ifodalanishi ham mumkin.

Xulosa

Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek frazeologiyasida metaforik ma'no ko'pincha bevosita tajribaga yaqin manba domenlari asosida shakllanishini ko'rsatdi. Maqolada INSON TANASI, MAKON VA YO'NALISH hamda HARAKAT VA YO'L domenlari misolida manba-maqsad munosabatining turli ko'rinishlari tavsiflandi.

Birinchiidan, ayrim birliklarda ikki tilda manba va maqsad domenlari deyarli parallel:

lose one's head – boshini yo'qotmoq, stand in someone's way – yo'lini to'smoq. Ikkinchidan, bir manba domeni turli maqsad tushunchalarni ifodalashi mumkin. Uchinchiidan, bir xil yoki yaqin maqsad mazmuni turli obrazlar orqali ifodalanadi; *break one's heart – yuragi ezilmoq* bunga misoldir.

Shu bois qiyosiy frazeologik tahlilda faqat tarjimaviy ekvivalentni aniqlash yetarli emas. Frazeologik birlikning qaysi manba domeniga tayanishi, qaysi maqsad domeniga proyeksiya qilinishi va bu proyeksiya ikki tilda qanday lisoniy ifodalanishi ham hisobga olinishi lozim. Mazkur yondashuv konseptual muvofiqlik bilan frazeologik muvofiqlikni farqlashga hamda ingliz va o'zbek frazeologiyasidagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni aniqroq tavsiflashga imkon beradi.

References:

1. Ayto, J. (2020). *Oxford dictionary of idioms* (4th ed.). Oxford University Press.

2. Black, M. (1962). *Models and metaphors: Studies in language and philosophy*. Cornell University Press.
3. Cowie, A. P., Mackin, R., & McCaig, I. R. (1983). *Oxford dictionary of current idiomatic English: Vol. 2. Phrase, clause and sentence idioms*. Oxford University Press.
4. Gibbs, R. W. (1994). *The poetics of mind: Figurative thought, language, and understanding*. Cambridge University Press.
5. Johnson, M. (1987). *The body in the mind: The bodily basis of meaning, imagination, and reason*. University of Chicago Press.
6. Kövecses, Z. (2005). *Metaphor in culture: Universality and variation*. Cambridge University Press.
7. Kövecses, Z. (2020). *Extended conceptual metaphor theory*. Cambridge University Press.
8. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
9. Rahmatullaev, Sh. (1992). *O'zbek tilining frazeologik lug'ati*. Qomuslar Bosh tahririyati.
10. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O'razova, I., & Rixsiyeva, K. (2022). *O'zbek tili frazeologik lug'ati*. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
11. Reddy, M. J. (1993). The conduit metaphor: A case of frame conflict in our language about language. In A. Ortony (Ed.), *Metaphor and thought*. 2nd ed. 164–201. Cambridge University Press.
12. Richards, I. A. (1936). *The philosophy of rhetoric*. Oxford University Press.